O'quv-tarbiyaviy vaziyatlarni loyihalashtirish asoslarida talabaning tarbiyaviy jihatlarini takomillashtirish ..	632
Temirov Ma'ruf Shuhrat o'g'li	
Tikuv buyumlarini konstruksiyalash va modellashtirishning avtomatlashtirilgan tizimlari fani orqali talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	638
Umarova Fotima Abduraximovna	
Bo'lajak o'qituvchilarda xalq pedagogikasi vositasida milliy xarakter xususiyatlarini shakllantirish omillari	641
Usmonova Muattar Bahadirjonovna, Hasanboyeva Kamola Dilmurod qizi	
Raqamli ta'lim texnologiyalarning bugungi kunda ta'lim sohasidagi qo'llanilishi	647
Xamroyeva Madina Dadajonovna, Umarov Husan Lazizi o'g'li	
Qurilish materiallari sanoatida innovatsion klasterlarni boshqarishni takomillashtirish	650
Xaydarova E'zoza Shukurullayevna, Li Zin Bo	
Geografiya ta'lim yo'nalishi talabalarini o'qitish metodikasi va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga oid tadqiqot ishlarining tahlili	655
Xodjaniyazova Shoxsanam Ergash qizi	
O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umurlar" romanida inson va uning ruhiyati	660
Xolmatova Ro'zixon Akmaljon qizi	
Talabalarda liderlikni shakllantiruvchi ijtimoiy-pedagogik omillar	663
Xoshimova Muazzamxon Zaynalobidinovna	
Creative Games and Project-Based Learning in Physics Lessons	666
Yorqinbek Abduraimjanovich Mamatokhunov	
Теоретические основы и практическое применение компетентного подхода в обучении физике	670
Абдулхаким Хакимов	
Роль инклюзивной игровой деятельности в социальной адаптации детей с инвалидностью дошкольного возраста	673
Плиева Руслана Владимировна	
"Beruniy asri" yoxud Beruniyning xarizmatik qobiliyati va uning boqiy ilmiy merosi	676
Saifnazarov Ismoil, Sultonov Tursinboy	
Значение наблюдения и педагогической диагностики в инклюзивном образовании	682
Тургунова Нилуфар Абдусаломовна	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik dunyoqarashini shakllantirish texnologiyalari	685
Xaydarova Shaxlo Narzullayevna, Azimova Gulmira Xayrullayevna	
Диалог культур в рассказе "Келинка" галины ширяевой: гендерная и этнокультурная перспектива ..	689
Чернова Татьяна Алексеевна	
Ijtimoiy va gumanitar fanlarning pedagogik ahamiyati: Xo'ja Vali avlodlari misolida	692
Umurov Sharif Rajabovich	



Raqamli ta'lim sharoitida talabalar mustaqil tayyorgarligini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari: didaktik yondashuvlar va ilg'or ilmiy modellarning tahlili.....	695
Umarova Zaxro Abduraxim qizi	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda innovatsion yondashuvga oid dolzarb masalalar	701
Sharofat Juraqulova Baxtiyorovna	
Bo'lajak ingliz tili mutaxassislarining sun'iy intellekt kompetensiyasi.....	704
Ibragimova Hilola Bahodirjon qizi	
Oliy ta'lim muassasalari talabalari orasida kurash sport turini keng rivojlantirish	709
Ochilov Elbek Olimovich	
Muhandislik grafikasi ta'limida talabalarining grafik ishlarni bajarish ko'nikmalarini rivojlantirish.....	712
Ashirboyev A. O., Muxamedjanova G. J.	
Futbol mashg'ulotlarida o'quvchilarda jamoaviy ruhni pedagogik usullar bilan rivojlantirish	715
Axmedjanov Shuhrat Boltayevich	
Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida nutqiy va lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish	718
Bamullayeva Shodiyona Nasrullo qizi	
Umumiy o'rta ta'lim o'quv dasturlarining sifat va samaradorligini oshirishning nazariy hamda ilmiy asoslari	721
Esanov Muzaffar Xoshimovich	
Bo'lajak tarbiyachilarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash texnologiyalari	726
Eshmuminova Dilshoda Iskandarovna	
Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida pedagogik yondashuvlarning roli	730
Jumanova Iroda Shokirjon qizi	
Arab xattotlik san'atining rivojlanishi.....	733
Mamarajabov Mirqosim Ramazon o'g'li	
Educational Effectiveness of the Question-and-Answer Technique in Working With English Texts	737
Muradulloyeva Sevinch Soxibjon qizi	
Boshlang'ich sinf matematika va geometriya darsliklarida STEAM yondashuvi asosida o'qitishning imkoniyatlari.....	740
Nazarova Shahzoda	
Boshlang'ich ta'lim o'quv jarayoniga sun'iy intellektni tatbiq etishning metodik asoslari (sinfidan tashqari ishlar misolida)	744
Nigmatullayeva Matluba Izatullo qizi	
Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining o'quvchilarda ijtimoiy faollikni shakllantirishdagi pedagogik imkoniyatlari	748
Normaxmatov Ilhom Zayniddinovich	
Boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining imkoniyatlari.....	751
Qurbonov Sanjar Rajabboyevich	
Sportchi salomatligini baholashda zamonaviy texnologiyalar.....	754
Samandarov A. X.	
Sport tashkilotlari uchun marketing, e-marketingning foydalari	758
Samatov Javlonbek Abdukayumovich	
Futbol o'yinlari orqali o'quvchilarda jismoniy tarbiya pedagogikasining ahamiyati	762
Sattarov Qarshiboy Norqulovich	
Kichik maktab yoshidagi bolalarda lingvistik kreativ intellektni shakllantirishning pedagogik shartlari	765
Shodiyev Rizamat Davronovich, Jabborova Maftuna Komil qizi	
Ota-onalar bilan samarali hamkorlikni tashkil etishda direktorning strategik yondashuvi.....	770
Tog'ayeva Shahnoza Shavkatovna	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa tinglash	774
Xodjayeva Nilufar Latipovna	
Talabalarda kitobxonlik madaniyatini targ'ib qilish orqali sog'lom fikrlarni shakllantirish masalasi.....	778
Xudayberganova Nargisa Qurbonbayevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini rivojlantirishda interfaol metodlarning ahamiyati	782
Kursanova Marjona Baxtiyor qizi	
Sun'iy intellekt – bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilari ta'limini modernizatsiya qilish vositasi sifatida	785
Yoqubaliyeva Dilafruz Payzidin qizi	
Tibbiy pedagogika: kasbiy ta'limda sog'lom turmush tarzi shakllantirishning psixopedagogik asoslari.....	788
Ziyatov Muhammad Namazovich	
Интерактивное обучение в развитии личности и критического мышления студентов	792
Рысова Галия Байбулатовна	

BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QUV JARAYONIGA SUN'IY INTELLEKTNI TATBIQ ETISHNING METODIK ASOSLARI (SINF DAN TASHQARI ISHLAR MISOLIDA)

Nigmatullayeva Matluba Izatullo qizi

Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi
“Maktabgacha ta'limni muvofiqlashtirish” bo'limi
yetakchi mutaxassisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarini boshlang'ich ta'lim tizimiga, ayniqsa, sinfdan tashqari mashg'ulotlarga integratsiya qilish imkoniyatlari tahlil etiladi. Muallif SI asosidagi o'quv platformalari, raqamli yordamchilar, interaktiv mashg'ulotlar orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash, nutqiy faoliyat va axborot bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini bayon etadi. Shuningdek, ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, boshlang'ich ta'lim, sinfdan tashqari mashg'ulot, raqamli texnologiyalar, ta'limda innovatsiya, interaktiv metodlar, o'quv motivatsiyasi.

Abstract: This article discusses methodological foundations for integrating artificial intelligence (AI) technologies into the primary education process, particularly in extracurricular learning contexts. The author examines how AI-based educational platforms, virtual assistants, and interactive tasks can foster students' independent thinking, speech development, and information processing skills. Practical recommendations for improving learning effectiveness are also provided.

Key words: artificial intelligence, primary education, extracurricular activities, digital technologies, educational innovation, interactive methods, learning motivation.

Аннотация: В статье рассматриваются методические основы внедрения технологий искусственного интеллекта в учебный процесс начального образования, особенно в рамках внеклассных занятий. Автор анализирует возможности использования цифровых платформ, виртуальных ассистентов и интерактивных заданий для развития у младших школьников навыков самостоятельного мышления, речевой активности и работы с информацией. Также предлагаются рекомендации по повышению эффективности обучения.

Ключевые слова: искусственный интеллект, начальное образование, внеклассные занятия, цифровые технологии, инновации в образовании, интерактивные методы, учебная мотивация.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri – o'quvchilarda mustaqil fikrlash, axborot bilan ishlash va zamonaviy texnologiyalarni ongli ravishda qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishdir. Bugungi kunda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari turli sohalarida, xususan ta'limda ham keng joriy etilmoqda. SI vositalari ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirilgan, interfaol va samarali qilish imkonini beradi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida bu texnologiyalarning to'g'ri va maqsadli qo'llanishi o'quvchilarda ilg'or tafakkur, muloqot, tahliliy yondashuv va ijodiy fikrlash asoslarini shakllantiradi.

Boshlang'ich ta'lim – bu bola hayotidagi eng muhim bosqichlardan biri bo'lib, uning intellektual va ijtimoiy rivojlanishida poydevor vazifasini bajaradi. Shu bosqichda o'quvchilarga sun'iy intellekt asosidagi o'quv platformalari, virtual yordamchilar, interaktiv topshiriqlar orqali ta'lim berish ularning motivatsiyasi va darsdagi ishtirokini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim mazmunini chuqurroq anglash, mustaqil izlanish va faol o'rganish uchun zamin yaratadi ^[1]. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar esa sun'iy intellekt imkoniyatlarini erkin va kreativ shaklda qo'llash uchun ayni muddao hisoblanadi. Bunday faoliyatlar orqali o'quvchilar o'z qiziqishlari asosida yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtiradi, interaktiv dasturlar bilan ishlashni o'rganadi hamda real hayotga yaqin sharoitda o'z fikrini ifoda eta olish, guruhda ishlash va muammo yechish ko'nikmalarini rivojlantiradi.



Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim tizimida, xususan sinfdan tashqari ishlar orqali sun'iy intellekt texnologiyalarini tadqiq etishning samarali usullari va metodik yondashuvlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – sun'iy intellekt vositalaridan foydalanib, boshlang'ich sinf o'quvchilarida zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodik modelni ishlab chiqish hamda ta'lim jarayoniga integratsiya qilishga doir amaliy tavsiyalarni taklif etishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich ta'lim jarayoniga sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarini integratsiya qilish masalasi so'nggi yillarda jahon va mahalliy pedagogik tadqiqotlarda dolzarb mavzulardan biri sifatida ko'rilmoqda. Xususan, raqamli kompetensiyalar, interaktiv ta'lim vositalari, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv va texnologik innovatsiyalar bugungi ta'lim metodikasi asosiy yo'nalishlariga aylangan. Xorijiy adabiyotlarda N. Selwyn, C. Dede, J. Luckin kabi mualliflar sun'iy intellektning o'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlariga mos ta'lim muhitini yaratishdagi o'rnini ta'kidlaydi. Ular SI vositalari yordamida differensial o'qitish, o'quvchilarning kognitiv faoliyatini kuzatish va individual yondashuvni shakllantirish imkoniyatlarini tahlil qilgan. J. Luckin (2018) sun'iy intellektni "o'qituvchini to'ldiruvchi vosita" sifatida ko'rib, uning yordamida ta'limda interfaollik va refleksiya kuchayishini asoslab beradi ^[1].

Mahalliy tadqiqotlarda esa T. To'xtasinov, S. Abdullayeva, M. Jo'raqulova, D. Qurbonova kabi pedagog olimlar sun'iy intellektga asoslangan didaktik vositalar, onlayn platformalar, chatbotlar va o'yinli texnologiyalar orqali o'quvchilarda bilimga qiziqishni oshirish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish imkoniyatlarini yoritgan. Jumladan, D. Qurbonovanning "Raqamli texnologiyalar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish" nomli ishida SI asosida ishlab chiqilgan mashqlar orqali o'quvchilarda ifoda qilish, savol-javobda ishtirok etish kabi ko'nikmalarning shakllanishi tadqiq qilingan ^[2].

Shuningdek, konstruktiv yondashuv (J. Piaget, L. Bruner), tahlil asosli ta'lim nazariyasi (B. Bloom) va adaptiv o'quv tizimlari ham ushbu yo'nalishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Bu yondashuvlar sun'iy intellekt vositalaridan foydalanib, o'quvchilarni passiv bilim oluvchidan faol bilim yaratuvchiga aylantirishga xizmat qiladi. Bu orqali bolalar nafaqat tayyor ma'lumotni o'zlashtiradi, balki u bilan ishlash, uni tahlil qilish va qayta yaratishga ham o'rganadi ^[3]. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar bo'yicha adabiyotlarda esa SI texnologiyalarining ijtimoiy-madaniy rivojlanishdagi roli ta'kidlangan. Xususan, "Boshlang'ich ta'limda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish metodikasi", "Raqamli didaktika asoslari" kabi o'quv qo'llanmalarda virtual laboratoriyalar, QR-kodli topshiriqlar, mobil ilovalar orqali o'tkaziladigan mashg'ulotlarning pedagogik samaradorligi asoslab berilgan.

Xulosa qilib aytganda, mavjud adabiyotlar boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashda sun'iy intellektidan foydalanish bo'yicha nazariy va amaliy asoslarni shakllantiradi. Mazkur maqolada esa aynan sinfdan tashqari ta'lim faoliyatida SI texnologiyalarini qo'llashning metodik modeli, pedagogik afzalliklari va ularni milliy ta'lim tizimiga uyg'unlashtirishga doir tahlillar bayon etiladi.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani yozish jarayonida sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarini boshlang'ich ta'lim jarayoniga, xususan, sinfdan tashqari mashg'ulotlarga samarali integratsiya qilish imkoniyatlarini o'rganish uchun zamonaviy ilmiy metodlardan kompleks tarzda foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini qiyosiy tahlil, kuzatuv, empirik ma'lumotlar yig'ish, kontent-tahlil va so'rovnoma usullari tashkil etdi.

*Birinchi*dan, qiyosiy tahlil metodi yordamida O'zbekiston Respublikasi umumta'lim maktablari uchun ishlab chiqilgan boshlang'ich ta'limga oid amaldagi o'quv dasturlari, sinfdan tashqari ishlar bo'yicha metodik tavsiyalar, raqamli resurslar hamda xorijiy tajriba (masalan, AQSh, Finlandiya, Janubiy Koreya) asosida ishlab chiqilgan sun'iy intellekt vositalarining ta'limda qo'llanilishi tahlil qilindi. Bu usul yordamida mahalliy va xorijiy tajribalar o'zaro solishtirilib, ularning afzalliklari va moslashuvchanligi aniqlashtirildi.

*Ikkinchi*dan, kuzatuv metodi asosida bir nechta umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'tkazilayotgan sinfdan tashqari mashg'ulotlarda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish darajasi monitoring qilindi. Jumladan, o'qituvchilar tomonidan chatbot, interaktiv ta'lim ilovalari (Quizlet, Kahoot, Duolingo), sun'iy intellekt yordamida avtomatik mashq tizimlari (AI writing assistant) kabi vositalardan foydalanish holatlari qayd etildi. O'quvchilarning ushbu vositalar bilan ishlashdagi faolligi, qiziqishi va bilim o'zlashtirish darajasi kuzatildi ^[4].

*Uchinchi*dan, kontent-tahlil metodi orqali mavjud o'quv-metodik materiallar va sun'iy intellekt dasturlarida taklif etilayotgan topshiriq va mashg'ulotlar chuqur tahlil qilindi. Xususan, topshiriqlarning mantiqiy-tahliliy fikrlash, til kompetensiyalarini rivojlantirish, muloqot madaniyatini shakllantirishdagi funksional vazifalari o'rganildi. Tahlil jarayonida topshiriqlarni milliy ta'lim kontekstiga moslashtirish va ularning o'zbek tilidagi muqobillari ham ko'rib chiqildi.

To'rtinchidan, so'rovnoma usuli yordamida 10 ta maktabdagi 50 nafar boshlang'ich sinf o'qituvchisi va 100 nafar o'quvchi ishtirokida ijtimoiy so'rov o'tkazildi. So'rovda quyidagi savollar o'rganildi:

- Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish tajribasi;
- Sinf dan tashqari mashg'ulotlarda raqamli metodikadan foydalanish qulayligi;
- O'quvchilarda kuzatilgan o'zgarishlar (motivatsiya, faoliyat, bilim sifati);
- Qanday raqamli yoki AI vositalar eng samarali natija bergan ^[5].

Bundan tashqari, faoliyat asosidagi yondashuv (activity-based learning), shaxsga yo'naltirilgan ta'lim (learner-centered approach) va raqamli pedagogika tamoyillari asosida metodik yondashuvlar ishlab chiqildi. Maqolada aynan milliy ta'lim tizimiga mos, arzon, foydalanishga yengil va didaktik jihatdan boy AI texnologiyalar tavsiya qilinadi [9]. Yuqoridagi metodlar yordamida to'plangan materiallar asosida maqolada sun'iy intellektning boshlang'ich sinf ta'limidagi didaktik va kommunikativ imkoniyatlari tahlil qilinib, innovatsion metodik model asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Olib borilgan tahlil, kuzatuv va empirik ma'lumotlar asosida sun'iy intellekt (SI) vositalarining boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'limiy faolligi va bilim sifati, ayniqsa sinf dan tashqari mashg'ulotlardagi roli chuqur o'rganildi. Tadqiqotlar natijasida quyidagi asosiy jihatlar aniqlashtirildi.

Sun'iy intellekt asosidagi o'quv dasturlarining o'quvchilarda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni kuchaytirishdagi samarasi yuqori baholandi. Jumladan, AI-assistentlar orqali matn tuzish, hikoya davom ettirish, savol-javob formatidagi mashg'ulotlar, nutqni avtomatik baholash kabi imkoniyatlar orqali o'quvchilar ijodkorligining oshgani kuzatildi. Bu esa sinf dan tashqari darslarda bolaning faol ishtirokini rag'batlantirgan ^[6]. Interaktiv AI platformalari (masalan, Duolingo, Replika, Grammarly kabi vositalarning lokal moslashtirilgan variantlari) orqali o'quvchilarning til kompetensiyalari, xususan, so'z boyligi, to'g'ri talaffuz va grammatik tahlil ko'nikmalari rivojlangan. O'yinli va baholovchi xususiyatlarga ega AI tizimlar motivatsiyani oshirgan, natijada o'quvchilar topshiriqlarni mustaqil bajarishga ko'proq harakat qilganlar.

Diagramma va tahliliy jadvallar orqali sinf dan tashqari mashg'ulotlarda sun'iy intellekt vositalarining bosqichma-bosqich joriy etilishi ijobiy tendensiyalarni ko'rsatdi. 1–2-sinflarda AI orqali ovoqli mashg'ulotlar va multimediali topshiriqlarga, 3–4-sinflarda esa matn tuzish, tahliliy fikrlashni rivojlantiruvchi interaktiv dasturlarga asosiy urg'u berildi. So'rovnoma natijalariga ko'ra, o'qituvchilarning 80 % qismi sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilar faolligini oshirganini, 65 % o'qituvchi esa bunday vositalar orqali o'z mehnat samaradorligi oshganini ta'kidladi. Ayniqsa, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, muammoli vaziyatlar yaratish va AI bilan muloqot qilish imkoniyati o'quvchining o'z fikrini mustaqil bayon qilishiga yordam bergani aniqlangan ^[10]. Shu bilan birga, ba'zi muammolar ham aniqlandi. Ular qatorida ayrim maktablarda texnik baza va internet infratuzilmasining zaifligi, o'qituvchilarning sun'iy intellekt dan foydalanish bo'yicha metodik bilimlarining yetarli emasligi, AI vositalarining o'zbek tilidagi resurslar bilan cheklangani qayd etildi. Bu holatlarni bartaraf etish uchun o'qituvchilar malakasini oshirish, mahalliy kontent yaratish va infratuzilmani takomillashtirish zarur ekani ta'kidlandi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt vositalarini boshlang'ich ta'limning sinf dan tashqari mashg'ulotlariga samarali integratsiya qilish orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash, nutqiy faollik, axborot savodxonligi va lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish mumkin. Eng muhimi, bu jarayon ta'limda ijodiy va interfaol muhit yaratish, bolani passiv bilim oluvchidan faol ishtirokchiga aylantirish imkonini beradi ^[7].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida sun'iy intellekt texnologiyalarining boshlang'ich ta'lim jarayoniga, ayniqsa sinf dan tashqari mashg'ulotlarga integratsiyasi bo'yicha mavjud imkoniyatlar, amaliy natijalar hamda metodik yondashuvlar chuqur tahlil qilindi. Quyidagi xulosa va tavsiyalar mazkur jarayonni takomillashtirishga xizmat qiladi. Sun'iy intellekt vositalarini sinf dan tashqari mashg'ulotlarga tizimli tatbiq etish zarur. Xususan, AI-assistentlar, ovoqli yordamchilar, chat-botlar, avtomatik yozma tahlil dasturlari yordamida o'quvchilar bilan mustaqil ishlash, ularning til ko'nikmalarini individual tarzda rivojlantirish imkoniyati mavjud. Bunday yondashuv o'quvchining mustaqil fikrlashiga, kreativ yondashuviga va til madaniyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Sinf dan tashqari mashg'ulotlarda AI asosida yaratilgan interaktiv topshiriqlardan foydalanish tavsiya etiladi. Ertaklar yaratish, dialog tuzish, testlar orqali bilimni mustahkamlash, virtual o'yinlar va hikoya davom ettirish kabi mashg'ulotlar orqali o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish mumkin ^[8]. O'qituvchilarni sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash lozim. Bu borada metodik qo'llanmalar, amaliy treninglar, raqamli pedagogika bo'yicha malaka oshirish kurslari tashkil etilishi kerak. O'qituvchilarga AI platformalarining imkoniyatlari va ularni darsdan tashqari mashg'ulotlarda samarali qo'llash yo'llari o'rgatilishi maqsadga muvofiq.



Mahalliy kontent asosida raqamli ta'lim resurslari ishlab chiqilishi lozim. Sun'iy intellekt vositalarining o'zbek tilidagi funksional imkoniyatlarini kengaytirish, milliy qadriyatlar asosida tuzilgan interaktiv materiallar, ovozli topshiriqlar va multimedial kontentlar orqali o'quvchilarda til va muloqot kompetensiyasini rivojlantirish mumkin. Baholash tizimiga sun'iy intellekt asosidagi avtomatik diagnostika va natijalarni tahlil qilish funksiyalarini kiritish zarur. Bu orqali o'quvchining nutqiy faolligi, yozma fikrlashi, grammatika va leksik ko'nikmalari real vaqt rejimida baholanadi va individual rivojlanish xaritasi tuziladi.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt boshlang'ich ta'limning sinfdan tashqari ishlari bilan uyg'unlashtirish orqali ta'lim jarayonini samarali, interaktiv va o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan tarzda tashkil etish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu esa nafaqat bilim sifatini oshiradi, balki o'quvchilarni kelajakdagi raqamli jamiyatga tayyorlashda muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Anderson, J. R. (2005). Cognitive Psychology and Its Implications. Worth Publishers.
2. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2019). Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. Center for Curriculum Redesign.
3. Qodirov, B. (2021). Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalar asoslari. – Toshkent: O'qituvchi.
4. Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M., & Forcier, L. B. (2016). Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education. Pearson Education.
5. Turdiyeva, N. (2022). Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar. – Samarqand: Zarafshon nashriyoti.
6. Woolf, B. P. (2010). Building Intelligent Interactive Tutors: Student-Centered Strategies for Revolutionizing E-Learning. Morgan Kaufmann.
7. Azizova, G. (2023). Boshlang'ich ta'limda sun'iy intellektidan foydalanish metodikasi. – Toshkent: Ilm Ziyo nashriyoti.
8. OECD. (2021). Digital Education Outlook 2021: Pushing the Frontiers with AI, Blockchain and Robots. OECD Publishing.
9. UNESCO. (2022). Artificial Intelligence and Education: Guidance for Policy-makers. Paris: UNESCO Publishing.
10. Hamdamov, I. (2020). Interfaol ta'lim metodlari va raqamli resurslar. – Buxoro: Ilmiy nashr.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.